

---

## SUD-HUQUQ TIZIMIDAGI HAYOTBAXSH ISLOHOTLAR

Inson huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan islohatlar izchil davom ettirilmoqda. So'nggi yillarda sud-huquq sohasini isloh etish borasida dadil masalalar yuzasidan bir qancha qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi.

Aytish kerakki, so'nggi yillarda mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini, eng avvalo, jinoiy tajovuzlardan himoya qilishning ishonchli kafolatlarini ta'minlashga, shuningdek, ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishiga, qonuniy manfaatlari cheklanishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Olib borilayotgan sud-huquq islohotlarining asosiga qonun ustuvorligi, fuqarolarning qonun oldida tengligi, insonparvarlik, adolatlilik va aybsizlik prezumptsiyasi kabi konstitutsiyaviy printsiplar poydevor qilib qo'yilgan. Sudlarning chinakam mustaqilligini ta'minlash eng ustuvor vazifa bo'lib, ayniqsa, sud biron-bir mansabdor shaxsning qo'li yetadigan idoraga aylanib qolishiga mutlaqo barham berilib, sud ishlariga aralashgani yoki sudga bosim o'tkazgani uchun javobgarlik kuchaytirilganligini qayd etish lozim. Bundan tashqari, yana bir muhim masala fuqarolik, iqtisodiy va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat darajasidagi uchta sudlar bitta sud sifatida birlashtirilganligi aholi va tadbirkorlarga katta qulayliklarni yaratdi.

Fuqarolik ishi bo'yicha sud qarorini nazorat tartibida qayta ko'rib chiqish imkoniyatini beruvchi muddatning 3 yildan 1 yilga qisqartirilishi esa, fuqarolik huquqiy munosabatlarning barqarorligi, fuqarolik protsessi ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarish va yangilanishlar mohiyat-e'tibori bilan sudlar mustaqilligini yanada mustahkamlash, odil sudlov samaradorligini yanada oshirish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalda to'liq himoya qilishga, bir so'z bilan aytganda, mamlakatda ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.

**Muhabbat Ibrohimova,**  
**Fuqarolik ishlari bo'yicha Rishton tumanlararo sudining sudyasi.**

2024-09-17 17:42:20